



**TARBIYADA INDIVIDUAL YONDASHUV MUAMMOSI.MEHNAT  
FAOLIYATINING TARBIYAVIY AHAMIYATI**

*Axborot texnologiyalari va menejment Universiteti*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)*

**EGAMBERDIYEV FARHOD TUXTAYEVICH**

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**JÒRAYEVA GULLOLA AHROR QIZI**

*Email:shohzodsultonj@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni tashkil etish muammolari va mehnat tarbiyasining yosh avlod ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Individual yondashuv, mehnat tarbiyasi, pedagogik mahorat, shaxs kamoloti, jamoaviy mehnat.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются проблемы организации индивидуального подхода с учетом специфики каждого студента, а также роль трудового воспитания в формировании духовно-нравственного мировоззрения молодого поколения.*

**Ключевые слова:** *индивидуальный подход, трудовое образование, педагогические навыки, личностное развитие, командная работа.*

**Abstract:** *This article analyzes the problems of organizing an individual approach, taking into account the specific characteristics of each student, and the role of labor education in forming the spiritual and moral worldview of the younger generation.*

**Keywords:** *Individual approach, labor education, pedagogical skills, personal development, teamwork.*

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan



tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.[1.160-161]

Mehnat tarbiyasi — bu shaxsda mehnatga ongli munosabatni, halollikni, tartib-intizomni, mas'uliyatni, mustaqillikni va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Mehnat tarbiyasi bolalikdan boshlab hayotning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi va u shaxsning har tomonlama yetuk, ijtimoiy foydali inson sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi.

Mehnat tarbiyasi nafaqat ish faoliyatini o'rgatadi, balki insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu tarbiya turi orqali yoshlar mehnatga mehr, kasbga qiziqish, jamoa bilan ishlash, vatan va jamiyat oldida mas'uliyat hissini o'zlashtiradilar.



Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlik quyidagi vazifalarni hal etadi:

- ▶ Mehnatning inson faoliyatidagi ahamiyatini anglash;
- ▶ Mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- ▶ Mehnat faoliyatini tashkil etish rag‘batini qaror toptirish;
- ▶ Mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlikni qaror toptirish;
- ▶ Mehnatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- ▶ Mehnatning kishilik taraqqiyoti bosqichlaridagi roli va o‘rnini anglash;
- ▶ O‘tmish ajdodlarimizning mehnatini ulug‘lovchi qadriyatlarini anglash va

shu kabilar.[2.172-173]

Mehnat tarbiyasi — bu nafaqat bolaga biror ishni o‘rgatish, balki uni harakatga, ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish, kelajakda jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishishiga zamin yaratishdir. Bugungi kunda halol mehnat qilish, mas’uliyatli bo‘lish, kasbga mehr qo‘yish kabi fazilatlar har bir yoshning tarbiyasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnat ta’limi va tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda hal etuvchi vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi. Mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;

Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o‘rgatish;

Mehnat qilishga nisbatan rag‘batni, shuningdek, muhabbatni uyg‘otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish;

O‘quvchilarni mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;



Mehnat faoliyatini ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

Mehnatga hayotiy zarurat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

O'quvchilarda mehnatsevarlik hislatlarini tarbiyalash, o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va boshqalar.

Xulosa: Tarbiyada individual yondashuv muammosini hal etish va mehnat faoliyatidan oqilona foydalanish — komil insonni tarbiyalashning kalitidir. Mehnat bolani shunchaki ishlatish emas, balki uning shaxsiy fazilatlarini jilo beruvchi vositadir. Agar har bir pedagog tarbiyalanuvchining ichki dunyosini tushunib, uni to'g'ri yo'naltirilgan mehnatga jalb qilsa, jamiyatda barkamol shaxslar ko'payadi. .[3.175-176]

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.R. Mavlonova, N. Raxmonkulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. 2013.
- 2.Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. 2005.
- 3.M. Quronov va boshqalar. "Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston". 2019.
- 4.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 1994.
- 5.Djumayeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: mohiyati va bartaraf etish yo'llari. // Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 82 b.
- 6.Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
- 7.Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
- 8.Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: "Dono hamro" ilmiy markazi, 2002. – 78 b.



9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 7-tom "Xamsa", "Hayratul abror". – T.: Fan. 1991.
10. Alisher Navoiy. "Mahbubul qulub". Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 14-jild. – T.: 1998.
11. Alisher Navoiy. "Nasoyimul muhabbat". To'la asarlar to'plami. 10-jild. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti. 2012.
12. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Cho'lpon, 1994. – 182 b.
13. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.
14. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.